

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MASHG'ULOTLARIDA TARBIYALANUVCHILARNING NUTQINI O'STIRISH NAZORAT QILISH VA TASHKILLASHTIRISH

Namangan viloyati Namangan tuman
13-son DMTT direktor o'rinbosari
Normirzayeva Shaxnoza Xoshimovna

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va nutq madaniyatini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, boshqaruv ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarishtashkil qilish xususida fikr bayon etilgan.

Аннотация: В статье представлены реформы, реализуемые в нашей стране по дальнейшему совершенствованию системы дошкольного образования и развитию речевой культуры, а также управлению, контролю и организации качества образования.

Abstract: The article presents the reforms being implemented in our country to further improve the preschool education system and develop speech culture, as well as the management, control and organization of educational quality.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim tizimi, nutq o'stirish, boshqarish metodlari, kadrlar, ta'lim sifati, ilmiy yondashuv, jarayon, vaziyatli, dasturiy-maqсадli yondashuv, kadrlar siyosati.

Ключевые слова: система дошкольного образования, организация, менеджмент, методы управления, персонал, качество образования, научный подход, процесс, ситуационный, программный подход, кадровая политика.

Key words: pre-school education system, organization, management, management methods, personnel, quality of education, scientific approach, process, situational, programmatic approach, personnel policy.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-sonli qarori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli qarori rivojlantiruvchi vazifani bajaradi. Ya'ni usulika bolalar nutqini o'stirish orqali ularning nutq a'zolarini anatomik-gimnastik mashq qildirish orqali nutqning ravon tushunarli bo'lishini ta'minlaydi: bolalar tafakkuri, aqliy faoliyatini rivojlantiradi, ularda nutq odobi, ma'naviy barkamollikni shakllantiradi. Chunki yaxshi rivojlangan nutq tushunarli ta'sirchan bo'ladi, bola o'z nutqini to'zatib boradi. Nutqni

rivojlantirish nafaqat bolani atrof-olam bilan tanishtirish tomoni, balki umumiy psixik rivojlanish ustuni hisoblanadi. Bola nutqining rivojlanishi umuman shaxsni va shu bilan birga barcha psixik jarayonlarni shakllantirish bilan bog'liqdir. «...Tilni egallash jarayoni - bu faqat va shunchaki bilimlar, mahorat hamda ko'nikmalarni berish jarayoni emas. Bu eng avvalo tarbiyadir. Qalbni tarbiyalash, aqlni tarbiyalash, fikrlar tuzishni shakllantirish, inson ruhiy qiyofasining eng nozik qirralariga chidam bilan ishlov berishdir» (K.D.Ushinskiy).

Nutq o'stirishning asosiy vazifasi— nutq o'stirish uslubi va uslubiyotlarini, ularning eng samarali vositalarini ilmiy-pedagogik asoslarda ishlab chiqish va bolalar bog'chalari tarbiyachilarini ular bilan ta'minlashdan iboratdir. Tarbiyachilar esa o'zlashtirilgan uslub va uslubiyot yordamida bolalarda zaruriy nutqiy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga harakat qiladilar. Nutq o'stirishning maqsadi bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishdan, atrofdagilar bilan nutqiy muloqotda bo'lish malakasini shakllantirishdan iborat.

Nutq o'stirishning vazifasi o'z ichiga bir qancha maxsus xususiy vazifalarni ham qamrab olgan. Jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha quyidagi maxsus, xususiy vazifalar amalga oshiriladi:

- Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutqini o'stirish, boyitish.
- Nutqning grammatik tomonini shakllantirish.
- Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash.
- So'zlashuv nutqini (dialog) shakllantirish.
- Hikoya qilishga o'rgatish (monologik nutqni shakllantirish).
- Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish.
- Bolalarni boshlang'ich savodga tayyorlash.

Tashkiliy pedagogik faoliyatni kuzatishda: - mudiraning bu ishni to'g'ri tashkil etgani, uning tashkiliy ma'muriy, tarbiyaviy va moliyaviy-xo'jalik ishlarini samarali olib borayotgani, jamoa a'zolari, tarbiyachi va boshqa [xodimlar bilan munosabati](#), shuningdek, ota-onalar bilan o'zaro munosabatlarini qanday yo'lga qo'yganiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Nazorat qilish (tekshiruv)ning usul va uslublari.

✚ bolalarning tashkilotdagi mashg'ulotlarini, kun tartibining turli jarayonlarini kuzatish va tahlil qilish;

✚ pedagogik va moliyaviy-xo'jalik ishlariga oid hujjatlarni o'rganish va tahlil qilish; bolalar ishlarini tahlil qilish;

✚ mudira, [tarbiyachilar](#), ota-onalar va bolalar bilan (ularning bilimi, ongi, nutqining rivojlanishini aniqlash maqsadida) suhbatlashish;

«Pedagogik kengash», «Ishlab chiqarish majlislari»da, ota-onalar kengashlarida ishtirok etish; jamoat tashkilotlari vakillari bilan suhbatlashish.

Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutqini oʻstirish, lugʻatini boyitish. Lugʻat ustida ishlash bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish orqali amalga oshiriladi. Bolalarni tevarak-atrofdagi buyumlar, hodisalar, oʻsimliklar, hayvonot dunyosi, kattalar mehnati va boshqalar bilan tanishtirish jarayonida ularning nomlarini, sifatlarini, xususiyatlarini, xarakterlarini soʻzlar bilan aytamiz. Masalan,

- buyumlarning nomini anglatadigan: koʻzgu, taroq, sovun, tish va kiyim choʻtkalari, palos, gilam, javon, karavot, xontaxta;
- sabzavotlarning nomini anglatadigan: sabzi, karam, sholgʻom, bodring, baqlajon;
- oʻsimliklar: daraxt, gul, oʻt va boshqalar; mevalar: olma, nok, olcha, gilos, olxoʻri va hokazolar;
- uy hayvonlari: xoʻroz, tovuq, ot, sigir, it, mushuk, qoʻy, eshak; va ularning bolalarini nomini bildiruvchi: joʻja, toychoq, buzoq, qoʻzichoq, uloqcha, xoʻtik;
- harakatlarni ifodalovchi: yuvinmoq, artmoq, pishirmoq, tayyorlamoq, kir yuvmoq, dazmollamoq, ekmoq va boshqalar; va sifatlarni bildiruvchi: katta, kichik, qizil, sariq, koʻk, zangori, oq, qora, issiq, sovuq, shirin, achchiq va hokazo soʻzlar bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish jarayonida bolalar lugʻatiga kiritiladi, buning natijasida ularning lugʻati boyitiladi, nutqi rivojlanadi. MTTlarda lugʻat bilan ishlash dasturi mavjud boʻlib, tarbiyachi bolalarga atrofdagilar bilan tez nutqiy muloqotga kirishib keta olishiga yordam beradigan soʻzlarni tanlab, maxsus usul yordamida ular nutqiga kiritib boradi.

Taʼlim mazmuni, taʼlim tashkilotlari tartibini va taʼlim sifatini boshqarishni alohida faoliyat sifatida belgilash mumkin. Bunda uning subyekti boshqaruv vazifalarini hal qilish orqali pedagoglar, ota-onalar, xizmat koʻrsatuvchi xodimlarning birgalikdagi faoliyatining uyushqoqligini hamda taʼlim maqsadlari va rivojlanish maqsadlariga erishishga yoʻnaltirilganligini taʼminlaydi.

Shu bilan birga maktabgacha taʼlimni isloh qilishning asosiy shartlaridan biri - buyuk maʼnaviy fazilatlarga ega, insoniy fazilatlarni oʻzida moʻjassamlashtirgan, yetuk kadr sifatida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar avlodini yetishtirishni talab etadi. Hozirgi davrning bu talabi – matabgacha taʼlim tarbiyalanuvchilarini axloqan va maʼnan yetuk, komil insonlar qilib tarbiyalash vazifalarini bajarishni talab etadi. MTT rahbarlari va pedagog kadrlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri – erkin fuqaro maʼnaviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasidir. Boshqacha aytganda, oʻz xaq-huquqlarini taniydigan, oʻz kuchi va imkoniyatlarini anglagan, atrofda sodir boʻlayotgan voqea va hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashgan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uygʻun xolda quradigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash lozim. Shu jihatdan

olganda, barkamol insonni tarbiyalash avvalo, pedagoglardan ulkan mahorat va mas'uliyatni talab qiladi. Ustozlik mahorati va tarbiyachilik san'atining tayyor andozasi yoki qolipi mavjud emas. Ushbu san'atni egallash uchun insondan katta kuch, ijodkorlik va ko'p yillik tajriba talab etiladi. Onini rejalashtirish, uni amalga oshirish, o'quv reja, dasturlarining mazmun mohiyati bilan emas, balki bolalarning olgan bilimlari, malaka va ko'nikmalari, mustaqil ravishda olgan bilimlari bilan bog'liq ta'lim natijasi sifati bilan belgilanmoqda. Har tomonlama taraqqiy etgan, aqlan va ma'nan barkamol, jismonan va ruhan tetik farzandlarni maktabgacha tarbiya tashkilotlarida kamol toptirish ahamiyati, Vatanimizning ravnaqi bugungi kunda yosh avlodlarga bergan ta'lim sifati va tarbiya mohiyati bilan chambarchas bog'liqligi alohida dolzarblik kasb etadi. Mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar buyuk ma'naviy fazilatlarga ega, insoniy fazilatlarni o'zida mo'jassamlashtirgan, yetuk kadr sifatida faoliyat yuritishga zamin hozirlaydi.



O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilishda ta'lim jarayonning barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, tarbiyalanuvchilarda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish va ularda

jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otishdir. Pedagogning ko'p qirrali faoliyati va uning qobiliyati, ijodkor va fidoiy bo'lishi hamda shogirdlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan biridir. Pedagogik mahoratga ega bo'lgan pedagog tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo'lgan nufuzli rahbar, o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy dunyosini tushuna oladigan, ularning tuyg'ularini his qila oladigan, ichki dunyosi nozik bo'lgan bola shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondashadigan, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziya, chuqur ilmiy tafakkurga ega bo'lgan shaxslardir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'quv faoliyatining sifati o'quv jarayonini rejalashtirish, uni amalga oshirish, o'quv reja, dasturlarining mazmun mohiyati bilan yemas, balki tahsil oluvchilarning olgan bilimlari, malaka va ko'nikmalari, mustaqil ravishda olgan bilimlari bilan bog'liq ta'lim natijasi sifati bilan belgilanmoqda.

Xulosa: Shunday qilib, bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha har bir ish jarayoni bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bu borada yuqorida bayon etilgan vazifalarning har biri o'zining ta'limiy va tarbiyaviy jihatiga ega. Nutqni rivojlantirish jarayonida shaxsning axloqiy sifatleri shakllantiriladi, aqliy va estetik tarbiyaning muhim vazifalari hal etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori, 2019., 13 may, PQ 4312 son.
2. Maxmudova Oygul Toxirjonovna “Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish usullari” <https://doi.org/10.5281/zenodo.14557936>
3. Narimbaeva L.K Maktabgacha ta’lim sifatini nazorat qilish va boshqarishning mexanizmlarini takomillashtirish. "Экономика и социум" №9(88) 2021 www.iupr.ru 944-945b
4. Mirziyoev SH.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” ” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi Toshkent-“O‘zbekiston” -2016, 11-bet, 20-bet.
5. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga qo‘ramiz. –Toshkent:O‘zbekiston, 2017.-488 bet.